# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 52 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников ..... 18
**Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович**

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirish masalalari ..... 26
**To‘xtaboyev Nuriddin Isomiddin o‘g‘li**

Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review ..... 32
**Ismoilova Maftuna Mamat qizi**

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari ..... 38
**Primova Shaxlo Jumayevna**

Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash ..... 43
**Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi**

# STATISTIK BAHOLASH VA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ORQALI BIZNES RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI SAMARADORLIGINI BAHOLASH





**Xabibullayev Ibrohim**
Toshkent gumanitar fanlar universiteti professori, texnika fanlari doktori, akademik

**Saidova Marhabo Xabibullo qizi**
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti doktoranti (DSc)
ORCID:0000-0002-3252-9967

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida biznes muhitining dinamik o‘zgarishlarini statistik tahlil qilish va samaradorligini baholashning ahamiyatini va zaruriyatini chuqur tahlil qiladi. Maqolada kichik va o‘rta biznes subyektlarining iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi o‘rni va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keng qamrovli tahlil etilgan. Tadqiqot davomida sohalar bo‘yicha statistik tahlillar olib borilib, kichik biznesning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar aniqlangan. Regression tahlil va vaqtli qatorlar modellarini qo‘llagan holda, biznes rivojlanishining jarayonlari va davlat tomonidan qabul qilingan iqtisodiy chora-tadbirlarning samaradorligi statistik jihatdan baholandi. Shuningdek, maqolada biznes subyektlari faoliyatidagi salbiy va ijobiy o‘zgarishlar sabablarini tahlil qilib, samaradorlikni oshirishga doir amaliy tavsiyalar keltirilgan. Ushbu tadqiqot kichik tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish va davlat siyosatida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik rivojlanishi, regressiya tahlili, vaqt qatorlari, davlat siyosati, biznes strategiyalari, innovatsion tadbirkorlik.

Abstract: This article is dedicated to the importance and necessity of conducting a statistical analysis of the dynamic changes in the business environment of the Republic of Uzbekistan and assessing its effectiveness. The paper examines the role of small and medium-sized business entities across various sectors of the economy and their share in the gross domestic product (GDP). Within the scope of the study, sector-specific analyses were carried out, and the factors influencing the development of small businesses were identified. Using regression analysis and time series models, the business development processes were statistically analyzed, and the effectiveness of measures implemented by the government was evaluated. Additionally, the article presents the reasons for changes in the activities of business entities and offers recommendations for their improvement. This research holds significant theoretical and practical value for enhancing the strategy for developing small entrepreneurship and making scientifically grounded decisions in government policy.

Key words: entrepreneurship development, regression analysis, time series, public policy, business strategies, innovative entrepreneurship.

Аннотация: Данная статья посвящена актуальности и необходимости статистического анализа динамических изменений в бизнес-среде Республики Узбекистан, а также оценке эффективности таких изменений. В статье исследуется роль субъектов малого и среднего бизнеса в различных секторах экономики и их вклад в валовый внутренний продукт (ВВП). В рамках исследования проведены отраслевые анализы, выявлены ключевые факторы, влияющие на развитие малого бизнеса. С использованием регрессионного анализа и моделей временных рядов произведён статистический анализ процессов развития бизнеса, а также оценена эффективность государственных мер, направленных на поддержку этого сектора. В статье также рассматриваются причины изменений в деятельности бизнес-субъектов и предложены рекомендации по их совершенствованию. Настоящее исследование имеет значительное теоретическое и практическое значение для усовершенствования стратегии развития малого предпринимательства и принятия научно обоснованных решений в государственной политике.

Ключевые слова: развитие предпринимательства, регрессионный анализ, временные ряды, государственная политика, бизнес-стратегии, инновационное предпринимательство.

## KIRISH

Biznes jarayonlarini modellashtirish modellashtirishning 20 ortiq usullari asosan regressiv modellardan foydalanib tahlil qilingan. O‘zbekistonda kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi aloqadorlikni empirik tekshirilgan va ularning tendensiyasi aniqlangan. Mamlakatimizda biznesni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu islohotlarning natijasi sifatida iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni ortib bormoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi hamda ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham yildan-yilga oshmoqda. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritishi bilan birga, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va savdo sohalarida ham keng faoliyat olib boradi. Shu sababli, kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash, ularni modellashtirish va baholash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakatning barqaror taraqqiyoti va aholi turmush darajasining oshishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida biznes jarayonlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy statistik va ekonometrik yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Davlatimiz tomonidan biznesni rivojlantirishga oid qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonni ilmiy asosda baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Statistik baholash va ekonometrik usullari orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini, mavjud muammolarni aniqlash hamda samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega.

2024-yilning ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlari soni 10 foizga oshgan[1]. Ushbu o‘sish sur‘ati iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida biznes sohasining jadal rivojlanayotganligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida biznes rivojlanishi jarayonlarini statistik baholash va ekonometrik modellashtirishning dolzarbligi, ahamiyati hamda zaruriyatini ilmiy-nazariy tahlil qilishga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes rivojlanishi jarayonlarini statistik baholash va ekonometrik modellashtirish sohasida bir qator xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ularning izlanishlari ushbu yo‘nalishda ilmiy yondashuvlarni boyitishga katta hissa qo‘shgan.

G.Soros tomonidan chop etilgan “Economic Growth and Business Dynamics” (“Iqtisodiy o‘sish va biznes dinamikasi”) nomli tadqiqotda biznes rivojlanishining turli sohalariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar statistik usulda baholangan. Tadqiqotda mikro va makro iqtisodiy omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ekonometrik modellarida tahlil qilinib, kichik biznesning o‘sishi iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan[2] .

Shuningdek, o‘zbekistonlik iqtisodchi olim Sh.Hasanovning “O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish strategiyasi” nomli maqolasida mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining soni va ularning iqtisodiyotdagi ulushi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning biznesni rivojlantirishdagi muhim ijobiy o‘zgarishlarga olib kelgani ta’kidlangan[3].

1 www.stat.uz
2 Soros, G. 2023. Cambridge University Press
3 Hasanov Sh. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2023

Bundan tashqari, iqtisodiyot va moliya bo‘yicha xalqaro ekspert L. Changning “Modern Econometric Models for SME Growth” (“Kichik va o‘rta biznes o‘sishi uchun zamonaviy ekonometrika modellari”) nomli tadqiqotida kichik biznesning moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlilida regression modellaridan foydalanish amaliyotini yoritgan. Tadqiqotda turli mamlakatlar misolida kichik va o‘rta biznesning moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligi ekonometrika usullari yordamida sinovdan o‘tkazilgan[4].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, biznes rivojlanishi jarayonlarini statistik baholash va modellashtirish nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki real amaliyotda ham yuqori ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda e’lon qilingan ilmiy ishlar ushbu yo‘nalishdagi yondashuvlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarni taqdim etdi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda biznes rivojlanishi jarayonlarini chuqur tahlil qilish uchun statistik va ekonometrik usullardan foydalaniladi. Asosiy metodlar sifatida regression tahlil, vaqtli qatorlar tahlili, klasterlash va ko‘p o‘zgaruvchili (omilli) tahlil modellari qo‘llaniladi. Regression tahlil yordamida biznesning turli omillar bilan bog‘liqligini aniqlash va ularning ta’sir kuchini baholash mumkin.

Vaqtli qatorlar tahlili biznes ko‘rsatkichlarining dinamik o‘zgarish tendensiyalarini aniqlashda qo‘llanilib, rivojlanish istiqbollarini bashorat qilish imkonini beradi.

Klasterlash usuli biznes subyektlarini o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra guruhlash va ularning umumiy jihatlarini tahlil qilishda qo‘llanadi. Ko‘p o‘zgaruvchili tahlil modellari esa biznes muhitidagi murakkab jarayonlarni tizimli tahlil qilish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun xizmat qiladi.

Mazkur metodlarning qo‘llanilishi nafaqat mavjud holatni baholash, balki keyingi rivojlanish jarayonlarini bashorat qilish, biznes strategiyalarini takomillashtirish hamda davlat siyosatini ilmiy asoslashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari real statistik ma’lumotlar asosida shakllantiriladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi hukumatining biznesni qo‘llab-quvvatlashga oid qaror va qonunlari hamda Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan so‘nggi yillarga oid rasmiy ma’lumotlardan keng foydalaniladi. Bu hujjatlar va ma’lumotlar tadqiqotning huquqiy va faktik asosini mustahkamlab, natijalarning ishonchliligini ta’minlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida biznesni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, qabul qilinayotgan qarorlar va iqtisodiy rivojlanish dasturlari mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiya qilinishi va tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

O‘zbekiston hukumati tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “2023–2025-yillarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish dasturi” doirasida qator amaliy choralar ko‘rilmoqda. Jumladan, soliq yuki pasaytirilib, kreditlarga oid imtiyozli dasturlar joriy etildi. Shuningdek, tadbirkorlar uchun “yagona darcha” tizimi orqali litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlari soddalashtirildi. 2023-yil davomida kichik va o‘rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi o‘tgan yilga nisbatan 15 foizga oshgani Statistika agentligi ma’lumotlarida aks etgan.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlari sonini ko‘paytirish hamda ularning barqarorligini ta’minlash uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosati ham faollashtirilgan. 2023-yilda xalqaro biznes forumlari va ko‘rgazmalar tashkil qilinib, mahalliy tadbirkorlar uchun eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlari kengaytirildi.

Hukumatning qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tadbirkorlikka yangi kirib kelayotgan subyektlar sonining ortishiga ham turtki bermoqda. Natijada 2023-yilda tadbirkorlik subyektlari ro‘yxatidan o‘tgan yangi korxonalar soni 20 foizga o‘sdi. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish sohalarida biznes subyektlari sonining keskin oshishi kuzatilmoqda.

Hududiy iqtisodiy dasturlar orqali tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida rivojlanayotgan viloyatlarda yangi biznes loyihalar uchun subsidiyalar ajratilib, infratuzilma imkoniyatlari kengaytirildi. “Yoshlar tadbirkorligi” va “Ayollar tadbirkorligi” kabi maxsus loyihalar esa aholi bandligini oshirishda va ijtimoiy tenglikni ta’minlashda ijobiy samara bermoqda.

Mazkur islohotlarning samaradorligi statistik tahlillar orqali tasdiqlanmoqda. Ekonometrik modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, biznes subyektlariga qaratilgan imtiyozlar va qo‘llab-quvvatlash dasturlari kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishi bilan birga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan ayrim cheklov va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha yana qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligi aniqlanmoqda.

4 Chang L. "Economic Research Journal", 2023

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tadbirlardan olinayotgan natijalar kelgusida strategik qarorlar qabul qilish uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, biznes muhitining uzluksiz monitoringi va statistik modellashtirish biznes strategiyalarini takomillashtirishda asosiy omil hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar 2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 401,3 mingtani tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 13,4 birlikni tashkil qildi.

2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni jami 401,278 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 18,945 tani tashkil etdi. 2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, Shu davrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Toshkent shahrida 87,613 tani yoki jamiga nisbatan 21,8,% ni, Toshkent viloyatida 37,179 tani yoki jamiga nisbatan 9,2 % ni va Samarqand viloyatida 36,397 tani yoki 9,0 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida 28,7 birlik, Navoiy viloyatida 20,4 birlik, Sirdaryo viloyatida 16,2 birlik, Buxoro viloyatida 15,6 birlik va Jizzax viloyatida 15,6 birlikni tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval. Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (2024-yil 1-aprel holatiga, ming birlikda) (Fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)[5].

| | *Ro'yxatga olingan* | | *Faoliyat ko'rsatayotgan* | |
|---|---|---|---|---|
| | *Jami* | *shu jumladan, kichik biznes* | *Jami* | *shu jumladan, kichik biznes* |
| **O'zbekiston Respublikasi** | **691,0** | **617,4** | **483,1** | **415,0** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 32,5 | 28,5 | 25,6 | 21,7 |
| *viloyatlar:* | | | | |
| Andijon | 50,9 | 45,0 | 29,9 | 24,5 |
| Buxoro | 39,5 | 35,6 | 30,7 | 27,1 |
| Jizzax | 30,6 | 27,0 | 19,6 | 16,4 |
| Qashqadaryo | 47,4 | 41,9 | 32,7 | 27,6 |
| Navoiy | 28,6 | 26,1 | 21,7 | 19,3 |
| Namangan | 41,0 | 36,2 | 27,6 | 23,1 |
| Samarqand | 61,7 | 55,1 | 43,2 | 37,2 |
| Surxondaryo | 36,3 | 32,0 | 24,3 | 20,2 |
| Sirdaryo | 20,4 | 18,1 | 13,3 | 11,1 |
| Toshkent | 67,0 | 60,1 | 45,3 | 39,0 |
| Farg'ona | 62,3 | 55,4 | 42,2 | 35,8 |
| Xorazm | 35,3 | 31,8 | 26,7 | 23,5 |
| Toshkent sh. | 137,5 | 124,6 | 100,3 | 88,5 |

Jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekiston hududida biznes subyektlarining ro'yxatga olinishi va faoliyat yuritishi bo'yicha hududlararo farqlarni ko'rsatadi.

Jadvalga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha umumiy ro'yxatga olingan korxonalar soni 691 mingni tashkil etgan bo'lsa, ulardan 483,1 ming tasi faoliyat yuritmoqda. Ushbu statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ro'yxatga olingan biznes subyektlarining qariyb 30% faoliyat yuritmayapti. Faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlarning yuqori foizi turli sabablar bilan izohlanishi mumkin:

**Yuqori xarajatlar:** Elektr energiyasi, ijaralar va soliq yukining oshishi korxonalarning faoliyatini murakkablashtirishi mumkin.

5 Manba: https://www.stat.uz/uz/nashrlar-menu/risolalar

**Yangi korxonalar:** Roʻyxatdan oʻtgan, biroq hali faoliyat boshlamagan yangi korxonalar mavjudligi.

**Bozor talabi:** Ayrim biznes yoʻnalishlariga boʻlgan talab pasayishi.

Hududlar boʻyicha korxona va tashkilotlarning sonida sezilarli farqlar mavjud:

**Toshkent shahri.** 137,5 ming korxona roʻyxatga olingan boʻlib, ulardan 100,3 ming tasi faoliyat yuritmoqda. Poytaxt iqtisodiy faolligi yuqori boʻlgan hudud boʻlib, ushbu koʻrsatkichning yuqoriligi biznes infratuzilmasining rivojlanganligi, isteʼmolchilar bozori kengligi bilan izohlanadi. Ammo faoliyat yuritmayotgan 37 mingga yaqin subyekt mavjudligi biznesni boshqarishdagi risklarni kamaytirish uchun qoʻshimcha mexanizmlarga ehtiyoj borligini anglatadi.

**Samarqand viloyati.** 61,7 ming korxona roʻyxatdan oʻtgan boʻlib, 43,2 ming korxona faoliyat yuritmoqda. Samarqand viloyati iqtisodiy jihatdan yirik hududlardan biri boʻlsa-da, ushbu farq mahalliy biznesni qoʻllab-quvvatlash choralarini yanada kuchaytirish zaruriyatini koʻrsatadi.

**Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari.** Ushbu hududlarda korxonalar soni nisbatan kam boʻlib, Surxondaryoda 36,3 ming roʻyxatga olingan korxonaning 24,3 mingi faoliyat yuritmoqda. Sirdaryoda esa faqat 13,3 ming korxona faoliyat yuritmoqda. Ushbu hududlarda infratuzilma va iqtisodiy imkoniyatlarni rivojlantirish zarur.

Kichik biznes subyektlari mamlakat iqtisodiyotining asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, Fargʻona viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalarning 85 foizi kichik biznes subyektlari hisoblanadi. Bu koʻrsatkich boshqa viloyatlarda ham yuqori. Biroq, ayrim hududlarda kichik biznes uchun davlat tomonidan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash va subsidiyalarni koʻpaytirish talab etiladi.

Faoliyat koʻrsatayotgan va roʻyxatdan oʻtgan subyektlar oʻrtasidagi tafovutlarning asosiy sabablari:

**Moliyaviy resurslarning yetishmasligi.** Ayrim hududlarda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun zarur moliyaviy mablagʻlarning yetarli emasligi.

**Tadbirkorlik muhitidagi toʻsiqlar.** Litsenziyalash jarayonining murakkabligi yoki mahalliy hokimiyat organlari bilan bogʻliq byurokratik muammolar.

**Iqtisodiy muhit.** Ayrim tarmoqlarda talabning pasayishi, iqtisodiy inqiroz yoki import-eksport cheklovlari biznesning barqaror faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Oʻzbekistonda roʻyxatga olingan korxonalarning katta qismi kichik biznes subyektlari boʻlsa-da, faoliyat yuritmayotgan subyektlar ulushi biznesni qoʻllab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish zarurligini koʻrsatmoqda.

Xususan:

kreditlash va investitsiya dasturlarini mahalliy darajada kengaytirish;

soliq yukini kamaytirish va subsidiya dasturlarini kuchaytirish;

yangi bozorlarni izlab topish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun davlat koʻmagini kuchaytirish.

Mazkur statistik koʻrsatkichlar va tahlillar hukumat qarorlarini samarali qabul qilish va biznes muhitini rivojlantirish boʻyicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, jadvali 2023-yilning birinchi choragi bilan 2024-yilning birinchi choragini solishtirib, kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi sezilarli oʻzgarishlarni koʻrsatadi (2-jadval).

2-jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda.

| | yanvar-mart, 2023 yil | yanvar-mart, 2024 yil | (+;-) |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **23 230** | **18 945** | **- 4 285** |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 3 086 | 1 622 | -1 424 |
| Sanoat | 3 986 | 3 567 | - 419 |
| Qurilish | 1 290 | 980 | -310 |
| Savdo | 8 639 | 6 989 | - 1 650 |
| Tashish va saqlash | 1 128 | 627 | -501 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 454 | 1 601 | 147 |
| Axborot va aloqa | 800 | 812 | 12 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 353 | 383 | 30 |
| Bosha faoliyat turlari | 2 494 | 2 324 | -170 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda jadvali 2023-yilning birinchi choragi bilan 2024-yilning birinchi choragini solshtirib, kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ushbu tahlil kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Jami yangi tashkil etilgan kichik korxonalar soni 2023-yilda 23 230 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 18 945 taga tushgan, ya'ni 4 285 birlikka kamaygan. Ushbu pasayish iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi, davlat siyosati, biznes muhitidagi muammolar va talab darajasining pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi. Ushbu tarmoqda yangi tashkil etilgan korxonalar soni 1 424 birlikka kamayib, 1 622 taga tushgan. Bu sezilarli pasayish resurslarga bo'lgan narxlarning o'sishi, suv tanqisligi yoki qishloq xo'jaligi bozoridagi murakkab sharoitlar bilan izohlanishi mumkin.

Sanoat. Sanoat tarmog'ida kichik korxonalar soni 419 birlikka kamayib, 3 567 tani tashkil qilgan. Sanoatdagi pasayish energiya resurslari, texnologik xarajatlarning oshishi yoki talabning qisqarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qurilish. Qurilish sohasida 310 birlikka pasayish kuzatilgan. 2023-yilda 1 290 ta yangi qurilish firmasi tashkil etilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 980 taga kamaygan. Bunga qurilish materiallari narxining oshishi, turar-joy bozoridagi susayish va davlat investitsiyalarining kamayishi sabab bo'lishi mumkin.

Savdo. Savdo sektori eng katta pasayishlarni ko'rsatgan bo'lib, 1 650 birlikka tushgan. Bu ko'rsatkich ichki iste'mol darajasining pasayishi, raqobatning oshishi yoki ayrim tovarlarning import-eksportdagi cheklovlar bilan izohlanishi mumkin.

Tashish va saqlash. Ushbu tarmoqda kichik korxonalar soni 501 birlikka kamayib, 627 ta yangi korxona tashkil etilgan. Logistika xarajatlarining oshishi va tashish sohasida raqobatning kuchayishi bunday pasayishga sabab bo'lishi mumkin.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar. Ushbu xizmat ko'rsatish sohasida ijobiy o'sish kuzatilgan – 147 birlikka oshgan va 1 601 ta korxona tashkil etilgan. Bu sohadagi o'sish turizm va mehmonxona xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Axborot va aloqa. Axborot texnologiyalari va aloqa sohasida 12 birliklik o'sish kuzatilgan. Ushbu sohadagi barqaror o'sish raqamli xizmatlarga bo'lgan talabning oshishi va davlat tomonidan raqamli iqtisodiyot loyihalarining qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar. Bu tarmoqda 30 birliklik o'sish kuzatilgan bo'lib, yangi tashkil etilgan korxonalar soni 383 tani tashkil qilgan. Bu sog'liqni saqlash sohasiga davlat va xususiy sektor tomonidan kiritilayotgan investitsiyalarning oshib borayotganligini ko'rsatadi.

Boshqa faoliyat turlari. Boshqa faoliyat turlari bo'yicha tashkil etilgan korxonalar soni 2 494 tadan 2 324 taga kamaygan. Ushbu pasayish ayrim xizmatlar bozoridagi o'zgarishlar va talabning pasayishi bilan izohlanadi.

O'zgarishlaning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Makroiqtisodiy omillar, jumladan, inflyatsiya va global iqtisodiy sharoitlar.

Kredit resurslarining yetishmasligi va foiz stavkalarining yuqoriligi.

Logistika va infratuzilmadagi kamchiliklar.

Xomashyo narxlarining oshishi va energiya resurslaridagi o'zgarishlar.

Yuqorida keltirib o'tilgan sabablarni tahlil qilish va biznesni yanada rivojlanish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

kichik biznes subyektlari uchun qo'shimcha moliyaviy yordam dasturlarini joriy etish;

soliq imtiyozlarini oshirish orqali yangi korxonalarni rag'batlantirish;

infratuzilmani yaxshilash va logistika xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlash;

innovatsion va axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlikni kengaytirishga qaratilgan grant dasturlarini kengaytirish.

Mazkur tahlil O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va mikrofirmalar muhim rol o'ynashini hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirilishi zarurligini ko'rsatadi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 42,7 % ni tashkil qildi (1-rasm).




1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi dinamikasi (2019–2024-yillarning yanvar-mart oylarida), % da.

Oʻzbekiston iqtisodiyotida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushi yillar davomida sezilarli oʻzgarishlarni boshdan kechirdi. 2019-yilda bu koʻrsatkich 48% ni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilga kelib 42,7% gacha kamaygan. Ushbu pasayish kichik biznesning iqtisodiyotdagi oʻrnini mustahkamlash uchun qoʻshimcha chora-tadbirlar zarurligini koʻrsatadi.

2020-yilda kichik biznes ulushi 46,3% gacha pasaygan boʻlib, bu COVID-19 pandemiyasi davridagi iqtisodiy cheklovlar va biznes faoliyatining susayishi bilan bogʻliq edi. 2021-yilda ulush biroz tiklanib, 46,7% ga yetgan boʻlsa-da, 2022-yilda 44,8% ga tushgan. Bu davrda global taʼminot zanjiridagi uzilishlar va energiya narxlarining oshishi kichik tadbirkorlikka salbiy taʼsir koʻrsatgan.

2023-yilda koʻrsatkich yana 44% darajasida saqlanib qoldi, ammo 2024-yilda 42,7% gacha tushdi. Bu holat kichik biznesning YaIMdagi ulushi kamayib borayotganidan dalolat beradi. Pasayishning asosiy sabablaridan biri yirik sanoat loyihalariga ustuvorlik berilishi, iqtisodiy resurslarning yirik korxonalarga yoʻnaltirilishi hamda raqobat sharoitlarining kuchayishidir.

Shuningdek, kichik tadbirkorlik sohasida moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi, kreditlar foiz stavkasining yuqoriligi va infratuzilma masalalari ham rivojlanishga toʻsqinlik qilmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda turizm, savdo va xizmat koʻrsatish kabi sohalarda kichik biznes uchun koʻproq yoʻqotishlar kuzatilgan.

Ijobiy tomondan qaraganda, ayrim yillarda kichik tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan imtiyozli dasturlar joriy etilganligi ulushni barqaror saqlashga yordam bergan. Biroq, kichik biznesning YaIMdagi ulushi pasayib borayotganligi ichki bozorda talabni oshirish, texnologik modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini kuchaytirish boʻyicha yangi strategik rejalar zarurligini koʻrsatmoqda.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalari hajmi Toshkent shahri (7,761,4 mlrd. soʻm), Buxoro (7,739,8 mlrd. soʻm), Toshkent (7,192,8 mlrd. soʻm), Namangan (6,717,8 mlrd. soʻm), Andijon (4,123,7 mlrd.soʻm), Qashqadaryo (3,986,3 mlrd.soʻm), Fargʻona (3,567,3 mlrd. soʻm) hamda Jizzax (3,433,9 mlrd. soʻm) viloyatlarida qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini oshirish uchun moliyaviy imtiyozlar, davlat buyurtmalarida ishtirokni kengaytirish va texnologik yangilanishlarni ragʻbatlantirish choralari koʻrilishi lozim. Bu nafaqat YaIM tarkibidagi ulushni koʻtarishga, balki aholi bandligi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari Oʻzbekiston Respublikasida biznes rivojlanishi jarayonlarini statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali chuqur tahlil qilish zarurligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, kichik va oʻrta biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushi yillar davomida sezilarli oʻzgarib, bir qancha tarmoqlarda qisqarish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa statistik baholash va ekonometrik modellashtirishni amalga oshirish orqali biznes rivojlanish jarayonlaridagi asosiy omillarni aniqlash, ularning iqtisodiy taʼsirini aniqlash va samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun zarurdir.

Statistik baholash natijalari asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznesning dinamikasi va uning umumiy rivojlanishga taʼsiri aniqlandi. Ekonometrika modellaridan foydalanish orqali biznes muhitidagi tendensiyalarni bashorat qilish va davlat siyosatini samarali yoʻnaltirish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, qishloq xoʻjaligi, savdo va sanoat sohalarida kichik biznes faoliyatining pasayish sabablarini aniqlash va ushbu yoʻnalishlarda oʻsishni ragʻbatlantiruvchi chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi koʻzga tashlanmoqda.

Bizningcha, ushbu tadqiqot doirasida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Statistik monitoring va modellash tizimini rivojlantirish. Biznes rivojlanishini kuzatish uchun muntazam statistik monitoring olib borish hamda regressiya va vaqtli qatorlari modellari asosida turli omillar taʼsirini baholash zarur.

Tahlil natijalaridan foydalanib davlat siyosatini optimallashtirish. Kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qabul qilinayotgan qarorlar va dasturlarni statistik tahlillar orqali baholab, islohotlarning samaradorligini oshirish lozim.

Sektorlar kesimida chuqur tahlillar olib borish. Qurilish, savdo, logistika va xizmat koʻrsatish kabi sohalarda kichik biznes subyektlarini qoʻllab-quvvatlash uchun maqsadli iqtisodiy dasturlarni takomillashtirish va omillarni bashorat qiluvchi ekonometrik modellarni qoʻllash.

Innovatsion tadbirkorlikni ragʻbatlantirish. Texnologik yangilanish uchun grantlar va dasturlarni koʻpaytirish orqali kichik biznesning texnologik rivojlanishini taʼminlash va ularga bozor imkoniyatlarini kengaytirish.

Moliyaviy va infratuzilmaviy qoʻllab-quvvatlash. Kredit stavkalarini pasaytirish, subsidiyalarni oshirish va infratuzilmani rivojlantirish kichik biznes subyektlariga yanada barqaror faoliyat olib borish imkonini beradi.

Mazkur takliflar asosida statistik baholash va ekonometrik modellashtirish jarayonlarini kuchaytirish orqali kichik tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasi takomillashtiriladi. Bu iqtisodiyotning barqaror oʻsishini taʼminlash, yangi ish oʻrinlari yaratish va YaIMdagi kichik biznes ulushini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Klassifikasiyalash (guruhlash) obyektni biror – bir tomonini ifodalovchi ko‘rsatkichning qiymatlari asosida guruhlarga ajratish va ularga nom berishdan iborat. Bunday usulda miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat ko‘rsatkichlariga o‘tiladi, ya’ni obektni holati masalan, yomon, o‘rtacha, yaxshi klasslarga ajratiladi.

Buning uchun obyektni ifodalovchi ko‘rsatkichning qiymatlaridan tuzilgan variasion qator diskret statsionar qator bo‘ladimi yoki vaqtli qator bo‘ladimi ma’lumotlar uch oraliq: obyektni yomon, o‘rtacha, yaxshi holatlarini ifodalovchi oraliqlarga taqsimlanadi va ko‘rsatkichning o‘rtacha qiymati hisoblanadi.

So‘ngra hisoblangan o‘rtacha qiymat qaysi oraliqda ekanligi aniqlanib, o‘rtacha qiymat tushgan oraliq o‘rtacha oraliq deb olinadi. Ko‘rsatkichning qiymati o‘rtacha oralig‘i(II guruh)ga tushgan obyektlarning holati “o‘rtacha” (rangi sariq, shartli belgisi BB) deb olinadi. O‘rtacha oraliqdan keyingi oraliq(III guruh)ga tushgan obyektlarning holati ”yaxshi” (rangi yashil, shartli belgisi AA), o‘rtacha oraliqdan oldingi oraliq(I guruh)ga tushgan ob’ktlarning holati “yomon” (rangi pushti, belgisi CC) deb olinadi (ranglarga shartli belgilarni kiritilishining sababi, natija qog‘ozga chiqarilganda ranglarni ajratib olish uchun).

Yana shunday holatlar ham bo‘lishi mumkin, ko‘rsatkichning o‘rtacha qiymati I yoki III guruhga tushishi mumkin. Bunday holatlarda, ya’ni o‘rtacha I guruhga tushganda ko‘rsatkichining qiymati o‘rtachadan kichik bo‘lgan obyektlar holati “juda yomon”(rangi qizil, shartli belgisi DD), shu guruhning o‘zida ko‘rsatkichining qiymati o‘rtachaga teng va undan katta bo‘lgan obyektlar holati “yomon”, II guruhga tushgan obyektlar holati “o‘rtacha” va III guruhga tushgan obyektlar holati “yaxshi” deb baholanadi. Ko‘rsatkichning o‘rtacha qiymati III guruhga tushganda ko‘rsatkichining qiymati o‘rtachadan katta bo‘lgan obyektlar holati “juda yaxshi” (rangi ko‘k, shartli belgisi EE) shu guruhning o‘zida ko‘rsatkichning qiymati o‘rtachaga teng va undan kichik bo‘lgan obyektlar holati “yaxshi”, II guruhga tushgan obyektlar holati “o‘rtacha” va I guruhga tushgan obyektlar holati “yomon” deb baholanadi.

Shu tariqa obyektlar o‘rganilayotgan ko‘rsatkichning sifat tomoni bo‘yicha klassifikasiya qilinadi. Klassifikasiyalash natijalari birinchidan obyektning, o‘rganilayotgan ko‘rsatkich bo‘yicha holatini vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan boshqa obyektlar holati bilan taqqoslash imkonini beradi.

O‘zbekiston respublikasi YaIMda va viloyatlar YaHMda biznesning ulushi ko‘rsatkichi ma’lumotlari bo‘yicha klassifikasiyalashni amalga oshirish uchun dasturlashning “Python” tilida “KLASSIFIKATOR BIZNES” deb nomlangan paket dasturi yaratildi. Paket dastur ikkita qismdan iborat: birinchisi KLASSIFIKATOR BIZNES dasturi, ikkinchisi EXCEL fayldagi ma’lumotlar – hududlar YaHMda biznesi ulushining yillar bo‘yicha qiymatlari (foizlarda).

Natijani tahlil qilinadigan bo‘lsak, O‘zbekiston respublikasi bo‘yicha YaIMda biznesning ulushi (foiz hisobida) 2013-yildan 2018-yilgacha “o‘rtacha” darajada bo‘lib, 2019–2021-yillarda esa “yomon” holatga tushib qolgan, 2022-yilga kelib yana “o‘rtacha” darajaga ko‘tarilgan. Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari o‘rganilgan 2013–2022-yillar davomida “yaxshi” darajada, Navoiy viloyati esa aksincha shu yillar davomida “yomon” holatda bo‘lgan, Toshkent viloyati doimo “o‘rtacha” darajada, Toshkent shahri 2018-yilgacha “o‘rtacha” darajada bo‘lib, 2022-yilga kelib “yomon” holatga tushib qolgan va x.k (2-rasm).


KLASSIFIKATOR

Respublika (Viloyatlar) YaIM(YaHM) da biznesni ulshini 2013-2022yillar uchun klassifikatsiyasi, %

| JUDA YOMON - DD | YOMON - CC | O'RTA - BB | YAXSHI - AA | JUDA YAXSHI - EE |
|---|---|---|---|---|

| Ob'ektlar | 2013yil | 2014yil | 2015yil | 2016yil | 2017yil | 2018yil | 2019yil | 2020yil | 2021yil | 2022yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| )'zbekiston Respublikasi | 55.8 - BB | 56.1 - BB | 62.9 - BB | 64.9 - BB | 63.4 - BB | 60.4 - BB | 55.3 - CC | 54.8 - CC | 54.1 - CC | 51.8 - BB |
| aqalpog'iston Respublikasi | 64.0 - AA | 64.5 - BB | 66.6 - AA | 61.1 - BB | 55.7 - BB | 55.2 - CC | 56.6 - CC | 58.3 - CC | 56.3 - BB | 56.6 - BB |
| Andijon | 54.7 - BB | 56.3 - BB | 57.0 - BB | 57.5 - BB | 59.4 - BB | 78.2 - AA | 83.1 - AA | 79.6 - AA | 72.3 - AA | 69.7 - AA |
| Buxoro | 64.1 - AA | 65.7 - AA | 65.5 - AA | 66.8 - AA | 67.0 - AA | 76.9 - AA | 78.4 - AA | 79.0 - AA | 80.3 - AA | 74.5 - AA |
| Jizzax | 77.3 - AA | 79.8 - AA | 79.2 - AA | 79.9 - AA | 79.9 - AA | 82.5 - AA | 83.4 - AA | 84.3 - AA | 85.3 - AA | 83.2 - AA |
| Qashqadaryo | 55.0 - BB | 56.2 - BB | 51.4 - BB | 51.4 - BB | 51.5 - BB | 61.3 - BB | 64.9 - BB | 64.9 - BB | 63.7 - BB | 70.9 - AA |
| Navoiy | 34.4 - CC | 35.9 - CC | 35.7 - CC | 36.1 - CC | 36.9 - CC | 49.0 - CC | 48.8 - CC | 47.8 - CC | 41.0 - CC | 31.0 - CC |
| Namangan | 76.0 - AA | 78.7 - AA | 78.4 - AA | 79.5 - AA | 79.7 - AA | 77.6 - AA | 78.7 - AA | 79.6 - AA | 80.0 - AA | 76.0 - AA |
| Samarqand | 73.6 - AA | 76.2 - AA | 75.9 - AA | 77.1 - AA | 77.4 - AA | 80.0 - AA | 80.1 - AA | 81.5 - AA | 80.3 - AA | 75.4 - AA |
| Surxondaryo | 71.7 - AA | 73.8 - AA | 73.7 - AA | 74.1 - AA | 74.5 - AA | 76.7 - AA | 78.0 - AA | 78.5 - AA | 80.0 - AA | 78.8 - AA |
| Sirdaryo | 77.4 - AA | 79.8 - AA | 66.7 - AA | 67.3 - AA | 67.7 - AA | 74.1 - AA | 74.4 - AA | 76.4 - AA | 76.5 - AA | 69.9 - AA |
| Toshkent viloyati | 54.7 - BB | 57.2 - BB | 54.6 - BB | 55.3 - BB | 56.2 - BB | 65.7 - BB | 66.2 - BB | 63.3 - BB | 57.7 - BB | 51.6 - BB |
| Farg'ona | 59.5 - BB | 61.2 - BB | 60.3 - BB | 61.1 - BB | 62.1 - BB | 70.8 - BB | 72.6 - AA | 70.3 - BB | 70.7 - AA | 69.4 - AA |
| Xorazm | 71.8 - AA | 74.1 - AA | 73.5 - AA | 73.8 - AA | 73.9 - AA | 76.3 - AA | 78.2 - AA | 78.0 - AA | 77.8 - AA | 76.6 - AA |
| Toshkent sh. | 54.6 - BB | 55.9 - BB | 60.0 - BB | 63.7 - BB | 63.9 - BB | 65.1 - BB | 53.3 - CC | 51.5 - CC | 48.8 - CC | 46.8 - CC |

EXCEL FAYLNI YUKLASH | CHIQISH

2-rasm. Respublika (Viloyatlar) YaIM(YaHM) da biznesni ulshi bo‘yicha 2013–2022-yil ma’lumotlari asosida Respublika va viloyatlarning 10 yil davomidagi holatini klassifikasiyalash natijalari.

Olingan natijalar obyektlarni bunday holatlarda boʻlish sabablarini aniqlash, rivojlantirishning optimal variantlarini ishlab chiqishda asos boʻlib hizmat qiladi hamda iqtisodiy obyektlar holatining monitoringini olib borish imkonini yaratadi.

Viloyatlarda YaHMda biznesning ulushining bunday holatda boʻlishining sabablari va unga ta’sir etuvchi omillarning tahlili navbatdagi tadqiqotlarimiz natijalarini chop etish orqali yoritib beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Bekmurodov I., Karimov A. (2023). “Oʻzbekistonda investitsion siyosatning strategik yoʻnalishlari.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, №4.
2. M.X. Saidova Oʻzbekistonda biznes rivojlanish jarayonlarini statistik tahlil qilish usullarini takomillashtirish: Doktorlik dissertasiyasi avtoreferati. T., 2021.
3. I.Xabibullayev, Saidova M.X. Yangi Oʻzbekistonda biznesni rivojlanish jarayonlarini modellashtirish va prognozlash. Monografiya. –T.: “IQTISODIYOT”, 2021. -140 б.
4. Statistika: darslik// Shodiyev X., Xabibullayev I. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019.-454 b.
5. R.Drogendijk, M.Oscar. Relevant dimensions and contextual weights of distance in international business decisions: Evidence from Spanish and Chinese outward FDI. 2015. International Business Review.24(1).133-147. https://doi.org/10.1016/j.ibusrev.2014.07.003.
6. N.Dutta, R.S.Sobel. Entrepreneurship and human capital: The role of financial development. International Review of Economics and Finance. 2018. doi: 10.1016/ j. iref.2018.01.020.
7. Z.Greenberg, Y.Farjab, E.Gimmon. Embeddedness and growth of small нbusinesses in rural regions.2018.
8. Axmedov N. (2023). “Hududiy iqtisodiy zonalar va investitsiya salohiyati: muammo va istiqbollar.” Oʻzbekiston iqtisodiyoti tahlili, №6.
9. Soros, G. 2023. Cambridge University Press
10. Hasanov Sh. “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali, 2023
11. Chang L. “Economic Research Journal”, 2023
12. Adegbuyi, O. A. (2023). “Econometric Models for Forecasting Market Share: A Case Study Review.” International Journal of Advanced Studies in Economics and Public Sector Management, 12(1), 200-203.
13. Muminova, M. A. (2023). “Econometric Modeling Based on Panel Data.” International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering, and Social Sciences, 17(8), 17-22.
14. Ibroimovich, R. A. (2023). “Econometric Modeling of the Volume of Services Provided in Tashkent Region.” Journal of Engineering, Technology, and Systems, 3(10), 104-110.
15. Jahon banki (2023). “Doing Business 2024” xalqaro hisobotlari. Rasmiy veb-sayt: www.worldbank.org.
16. Osiyo taraqqiyot banki (2023). “Markaziy Osiyoda investitsion muhitni rivojlantirish” boʻyicha tadqiqotlar. Manba: www.adb.org.
17. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (2023). “World Investment Report 2024: Investing in Sustainable Development.” Manba: unctad.org.
18. World Bank, “Uzbekistan: Country Economic Update,” 2023.
19. State Statistics Committee of Uzbekistan, Annual Reports (2010-2024).
20. Asian Development Bank, “Economic Reform and Growth in Uzbekistan,” 2022.
21. International Monetary Fund (IMF), “Uzbekistan: Economic Overview and Forecasts,” 2024.
22. www.stat.uz

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 4**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz